

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA
MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI**

**THE IMPORTANCE OF MUSIC CLASSES IN PRESCHOOL
EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

**ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫХ УРОКОВ В ДОШКОЛЬНЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama mukammal inson qilib tarbiyalashda, estetik tarbiya berishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyatining maqsad va vazifalari yoritilgan.

Annotation: This article discusses the goals and objectives of the importance of music education in educating the younger generation as a perfect person in all respects, aesthetic education.

Аннотации: В статье рассматриваются цели и задачи, важность музыкального образования в воспитании подрастающего поколения как совершенного человека во всех отношениях, эстетического воспитания.

Kalit so'zlar: kuylash, estetik tarbiya, musiqiy ritmik harakat, emotsional idrok, nota yozuvi, raqsga tushish, cholg'u asboblari.

Keywords: singing, aesthetic education, musical rhythmic movement, emotional perception, note writing, dancing, musical instruments.

Ключевые слова: пение, эстетическое воспитание, музыкальные ритмические движения, эмоциональное восприятие, написание нот, танцы, музыкальные инструменты.

Berkinova Charos Islomovna-o'qituvchi

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama bilimli, barkamol va mukammal inson qilib tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berishda musiqadan foydalanish, kichkintoylarni yoshligidan boshlab musiqaga oshno qilib tarbiyalash, tevarak-atrofni obrazli - emotsional idrok qilish demakdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga estetik tarbiya berishda musiqa o'ziga xos o'rni bor. Shu borada musiqa mashg'ulotlari mazmuni bolalar tomonidan bajaradigan qator faoliyatlarni taqozo etadi. Bulardan tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro etish jarayonida bolalar ijrochiligi va ijodkorligi malakalari shakllanadi.

Musiqa ta'limini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. **Birinchisi**, tayyorlov bosqichi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad – bolalarning musiqa uquvini o'stirishdir. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak. **Ikkinchi** bosqichda nota savodi ya'ni bevosita musiqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi – nota yozuvini o'rganishga kirishiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevisga o'rgatish;
- Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg'ularini hosil etish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib borish;

- Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish va bolalarning oddiy musiqa asboblari kuy chalish ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatini o'stirib boorish;

- Dastlabki ko'nikmalarini hosil etish, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish;

- Musiqa asaralaridan ta'sirlanish, shu asosda bolalarda musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish;

- Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish musiqadagi badiiy obrazni o'yin va xor ovozlari vositasida ifoda etish, ma'lum musiqaviy mavzuga yangi o'yin o'ylab topish;

- Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini bog'cha hayoti bilan bog'lash, bog'chada o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli ertaliklar, konsertlar uyishtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish.

Haqiqatan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan musiqa mashg'ulotlari bolalarni badiiy va g'oyaviy mazmuni bilan Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalaydi, tabiat hodisalari, jonivorlar bilan tanishadi, milliy qadriyat, urf-odat va an'analarning mohiyatini anglab boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar jarayonida yoshga qarab guruhlariga bo'lingan tarbiyalanuvchilarga imkoniyatini hisobga olgan holda musiqiy bilimlar beriladi.

Tarbiyalanuvchilar mashg'ulotlar davomida tovush xossalarini biladi, ularni uzun-qisqa, past-baland, cho'zib, uzib-uzib kuylashni o'rganadilar va musiqa ohangiga qarab shaxdam, sekin, yengil va tez yurish harakatlarini bilib oladi. Bunday tartibdagi mashg'ulotlar tarbiyalanuvchilarning nutq madaniyati, dunyoqarashi, aqliy tafakkuri va his qilish imkoniyatlarini shakllantiradi.

Musiqa mashg'uloti tarbiyachisi tarbiyalanuvchilarga o'zbek musiqa merosi, folklor namunalari, xalq kuy va qo'shiqlarini kuylash, raqsga tushish, musiqa asboblarning ko'rinishi va ijro etilishini yoshiga qarab belgilaydi va o'rgatadi. Lirik, mungli va sho'x raqs harakatlarini bajarish tarbiyalanuvchilarda havas va shaxdam yurish xislatlarini shakllantiradi.

Bolalarning raqs harakatlariga polka, vals, vazmin, marsh, o'ng-chap oyoqda maroq va viqor bilan yurish harakatlari, birga sakrash kabilar kiradi. Tarbiyalanuvchilar o'zbek milliy cholg'u asboblari dutor, shaqildoq, qayroq, nog'ora, doira va boshqa musiqa asboblari bilishi uning musiqiy bilim va ijro mahoratini oshiradi. Musiqaning nozik sirlari, jozibali jarangi, jo'shqin va sokin eshinishi, ritm tuzuklari orqali chiroyli harakatlar birligi tarbiyalanuvchilarning ichki hissiyatini boyitadi.

Musiqa tarbiyachisi mashg'ulotlarga bolani qiziqtirish uchun quvnoq kuy va qo'shiqlarni tinglash, kuylash, raqs elementlarini bajarish, she'r o'qish, ritmik chapak chalish kabi harakatlarni asta-sekinlik bilan o'rgatib boradi. Musiqiy tarbiya bolaga nafis did, g'ayrat va jo'shqinlik beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.Sharipova, Sh.Yakubova. «Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi». Toshkent, 2007.
2. No'monjon Soliyev. «Musiqa savodi alifbosi». Toshkent, 2003.
3. Berkinov, A. (2019). Technologies For The Development Of Educational And Creative Activities Of Students In The Process Of Solving Problems In Molecular Physics. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12)*.
4. Berkinova, C. I. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog tarbiyachining nutqiy faolliyatini o'ziga xosligi. *Academic research in educational sciences, 2(10), 771-775*.

5. Berkinova, C. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim faoliyatini to'g'ri tashkil etishning mazmuni. *Мaktabгacha таълим журнали*.
6. Berkinova, C. (2021). Musiqa fanining mavzularini o'qitishda muammoli ta'lim metodlari: musiqa fanining mavzularini o'qitishda muammoli ta'lim metodlari. *Мaktabгacha таълим журнали*, 3(Preschool education journal).
7. Berkinova, C (2021). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА INNOVATSION PEDAGOGIKA TUSHUNCHASI. *Мaktabгacha таълим журнали*, 3(Preschool education journal)